




“O‘ZBEK FOLKLORI VA SHEVALARI TADQIQOTLARI: AMALIYOT, METODOLOGIYA, YANGICHA YONDASHUV”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy
konferensiya materiallari

2026-yil 23-may

*(Professor Samixon Ashirboyev tavalludining
80 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan)*





“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari
/ Mas’ul muharrir: Sh.Sirojiddinov. – Toshkent, 2026. bet.

Mas’ul muharrir:

Shuhrat Sirojiddinov

filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

Normurodova N.Z. filologiya fanlari doktori, professor;

Jabborov N.A. filologiya fanlari doktori, professor;

Ashirboyev S. filologiya fanlari doktori, professor;

Tilavov A.X. filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Xidraliyeva Z.R. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Aliqulova H.Q. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi;

Turdialiyev A.X. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Alimardanov E.I. filol.fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi;

Qodirov U.A., katta o‘qituvchi.

Ushbu to‘plamda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2026-yil 23-mayda o‘tkazilgan **“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari hamda filologiya fanlari doktori, professor Samixon Ashirboyevning tabarruk yoshi munosabati bilan yo‘llangan tabriklar o‘rin olgan.

To‘plam materiallaridan filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistratura va bakalavriat talabalari, shuningdek, keng o‘quvchilar ommasi foydalanishlari mumkin. Maqolalar sifati, mazmuni va haqiqiyligi uchun muallifning o‘zi javobgar hisoblanadi.



37	Ruxshona XASANBOYEVA, Xorazm xalfachilik san'ati: tarixiy ildizlari, ijro an'analari va zamonaviy talqini	621
38	Munisa ABDULLAYEVA, Bolalar folklori va poetikasi	624
39	Tursunay JORABAEVA, Fitrat pen Axmet Baytursunmuly shyg'armalaridagi 'y ruxani yndestik pen ag'artushlylyq ideyalar	629
40	O'g'loy G'ANIYEVA, O'zbek va turk maqollarida badiiy tasvir vositalari	631
41	Umida ABDUXALIQOVA, "Go'ro'g'lining tug'ilishi" dostonida bola obrazi	634
42	Farangiz ESHMO'MINOVA, O'zbek bolalar folklorining o'rganilishi	636
43	Shaxlo MINGNOROVA, Shonazar Shoabdurahmonovning folklorshunoslik faoliyati	638
44	Gulsanam SHOKIROVA (XOLMIRZAYEVA), Uychi shevasi leksikasidan	640
45	Sarvinov XUDOYBERDIYEVA, Norin shevasining ayrim fonetik xususiyatlari	643
46	Manzura MASTONOVA, O'zbek xalq ertaklari va qozoq xalq ertaklarida umuminsoniy qadriyatlar	647
47	Xayrullo ASHUROV, Kulguda aks etgan haqiqat: o'zbek folklorida satira va yumorning ijtimoiy-estetik vazifasi	650
48	Sevinch QURBONNAZAROVA, Xorazm shevasida ko'rsatish olmoshlarining funksional-semantik xususiyatlari	649
49	Sevinch OSTONOVA, Allanining turkiy xalqlar madaniyatida tutgan o'rni	656
50	Xayriniso ESHMURATOVA, O'zbek shevalarida kiyim nomlari	659
51	Dinora ABIRQULOVA, "Go'ro'g'li" turkumi dostonlarida qahramonning safarga chiqish jarayoni tahlili	664
52	Munisa ESHMATOVA, Tohir Malikning "Murdalar gapirmaydilar" qissasida yetimlik muammosi ma'naviy tanazzul sifatida	669
53	Munira JUMANIYOZOVA, Xorazm viloyati hazorasp tumani shevasida kelishik kategoriyasining qo'llanishi	677
54	Ohista RAHIMQULOVA, G'ani Jahongirov va bolalar o'yin folklori	680
55	Durdona ZOKIROVA Marosim folklorining bugungi kundagi ahamiyati va zamonaviylik xususiyati	684
56	Marjona ABDUMAJITOVA Toshkent viloyati shevalarini leksik jihatdan bazi tahlili	686
57	Nigora MENGLIYEVA, O'zbek va turk tillarida 771omatic iboralarining o'rganilish darajasi	689
58	Marjona HAZRATQULOVA, Qorako'l shevasining tasniflardagi o'rni	694
59	Sabrina MUBINOVA, Buxoro shahar o'zbek-tojik shevalarini o'rganilishi	700



ALLANING TURKIY XALQLAR MADANIYATIDA TUTGAN O‘RNI

THE PLACE AND SIGNIFICANCE OF LULLABIES IN THE CULTURE OF TURKIC PEOPLES

Sevinch OSTONOVA,

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti

Nukus filiali Xalq ijodiyoti fakulteti

“Madaniyat va san’at muassasalarini tashkil etish va boshqarish”

yo ‘nalishi talabasi

10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/JWJT4555

Annotation. *This article provides information about the goddess, a figure of folklore. It also discusses the role and importance of the goddess in the lives of Turkic peoples.*

Key words: *Folklore, folklore, poetic texture, tradition, value, in disarray, in disarray.*

“Azaliy milliy qadriyatlarimiz, ota-bobolarimizdan meros bo‘lib kelayotgan odob-axloq qoidalariga tahdid kuchayib borayotgan hozirgi globalashuv sharoitida ma’naviyat va ma’rifatga, axloqiy tarbiya, yoshlarning bilim olish, kamolga yetishga intilishiga e’tibor qaratish g‘oyat muhim vazifamizdir”, – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti **Sh.M.Mirziyoyev** [Mirziyoyev Sh.M., 2022:266-b].

Prezidentimiz tarafidan e’tirof etilgan milliy qadriyatlarimizdan biri alladir. Alla, buvilarimizdan meros bo‘lib kelayotgan beshik qo‘shig‘idir. Beshik qo‘shiqlari onalarning orzu va armonlari bilan birgalikda turli tarixiy voqealar, ijtimoiy hayotga munosabat ham bayon etiladi. Onalar hech kimga aytolmagan yurak dardlarini chaqalog‘iga, bolasiga alla orqali aytgan va bundan ma’lum darajada yengil tortgan. Alla o‘z davrining lirik kayfiyatdagi ruhiy ko‘zgudir. Onaning yoqimli ohanglari ichida davr muhiti, kishilar tirikchiligi, ijtimoiy-maishiy hayot, kishilar o‘rtasidagi munosabatlar, qarama-qarshiliklar oddiy so‘zlarning go‘zal va badiiy, ruhiy qudrati o‘z ifodasini topgan.

Bunday dilni erkalovchi qo‘shiqlar bolaga ham xush yoqqan – ana shu she’riy to‘qimalar turli voqealarga, ayrim marosimlarga bog‘lab aytilgan bu qo‘shiqni alla qo‘shiqlari deyishgan. Alla, turkiy xalqlar o‘rtasida “balu-balu” nomi bilan yuritilganligiga oid ma’lumotlarni M.Koshg‘ariy o‘zining “Devonu lug‘otit turk” asarida alla haqida ham, beshik tebratish haqida ham ma’lumotlar keltirib o‘tadi.

Shuningdek, buyuk rus yozuvchisi A.M.Gorkiy e’tiroficha: – “Allalar ona-shoira bilan ishchi-tarbiyachining bir siymoda birlashgan vaqtida asl, o‘lmas poeziya sifatida hamma adabiyotlarning boshlang‘ichi bo‘lib vujudga kelganlar. Shu ma’noda har bir xalqda allaning tarixi o‘sha xalq bolalar folklorining tarixi sanalishi mumkin”[Oxunjon Safarov, 2010:333]

Haqiqatdan ham, alla bolalar folklorida muhim o‘rin tutadi. Chunki, alla bola tug‘ilganidan aytiladigan qo‘shiq bo‘lganligi uchun folklor boshlanmasi desak ham o‘rinli bo‘ladi. Bola tug‘ilib yetti kunlik bo‘lganida uni yuvintirib, ilk marta beshikka belashadi va bola beshikdan chiqadigan yoshga yetguncha onasidan eshitadigan qo‘shig‘i alla hisoblanadi.



Alla turkiy xalqlarda “huyya”, “alla”, “hayyu” shakllarida qo‘llangan. Alla onaning farzandiga qalb to‘rida saqlagan dardlari-yu, orzu-niyatlarini bayon qiluvchi, turkiy xalqlarning jon-joniga singib ketgan onaning jamiki, muhabbati hamda o‘z farzandiga bo‘lgan his-tuyg‘ularining yaqqol ifoda etadigan qo‘shiqdir.

E’tibor bersak, allalarimizda ko‘pincha onalarning o‘sha paytdagi ruhiy holati, kechinmalari aks etadi. Keltirilgan jumlar ham vaqt o‘tishi bilan o‘zgarib boradi.

Folklorshunos M.Alaviya alla tuzilishi haqida shunday fikr bildirgan edi: “Alla, asosan, to‘rtlikdan tashkil topgan bo‘lsa ham, ba’zi allalovchi to‘lqinlanib ketisa davom ettirib, boshqa misralarni ham qo‘shib yuboradi va bir-biriga yaqin to‘rtliklarni aytib, bu bilan o‘zining tilak, armonini izhor etadi” [M.Alaviya, 1976:132]

Allachilikning eng takomillashgan namunasi voqeaband allalar bo‘lib, bunday allalar yagona syujetga bo‘ysungan, hayotiy voqealarning biror lavhasi natijasida vujudga kelgan kayfiyatlar tasvirini beradi. Voqeabandlik xususiyatlarini yumoristik allalarda, shuningdek, yig‘i allalarida ham ko‘rish mumkin:

Past-pastgina tepadan Toydim tushdim-o, alla,

Qo‘linga qaychi olib-o, Senga qo‘zichogim-o,

Chopon bichdim-o, alla.

Parokanda allalar o‘zbek onalari allasida ko‘p uchraydi. Ularning muhim xususiyati-yagona syujet asosida qurilmaganligi. Bir parokanda band o‘zicha mustaqil tugal mazmunga ega. Lekin bunday mustaqillik faqat tashqi belgi, chunki mazmun mantiqi, baribir bolaga qaratilganligi bandlarni yagona bir ipga tizadi, buni vazn, qofiya, radif va hatto naqarot kabi badiiy-tasviriy komponentlar kuchaytiradi. Bugungi kunda ham allalarning aynan shu turini ko‘proq qo‘llanilmoqda. Allada parokandalikning kelib chiqishiga alla kuylayotgan onaning ayni shu davr va muhitdagi holati, kayfiyati, hayotiy tashvishlari, o‘kinchlari, armonlari ta’sir ko‘rsatadi.

Bunday vaziyatlarda “O‘z mulohazalariga kuchli g‘arq bo‘lib ketish oqibatida ona chaqalog‘ining kelajak taqdirini va hayotining barcha davrlarini o‘ylay boshlaydi. Fikri bola atrofida aylanadi-yu, biroq qo‘shiqqa ozmi-ko‘pmi miqdorda onalik hislari va istaklarim singdirayotganini o‘zi sezmay qoladi” (A.Vetuxov). [M.Alaviya, 1976: 48]

Saharlar uyg‘onarman, Turib sanga suvanarman.

Suvanganim san o‘zing... Rahm qil manga, qo‘zim, Alla-yo alla.

Bola uchun allaning so‘zi emas, kuyi yoqimli. Chunki u hali so‘z anglamaydi. Alladagi so‘zlar esa ona uchun muhim, ular ona qalbining nidolari. Alla qo‘shiqlarining bir ko‘rinishi heyalar bo‘lib, uni asosan erkaklar kuylashadi. Shu sababli heyalar erkaklar allasi deyishadi. Heyalar chorvachilik bilan shug‘ullanuvchi o‘zbeklar orasida keng tarqalgan. Zotan ayollar uy-ro‘zg‘or yumushlari bilan band bo‘lganda bolani ovutish, uxlatish erkaklar zimmasiga tushgan. Shunday kezlarda otalar yoki bobolar bolani tizzalariga olib, tebratish muvozanatiga mos ohangda heya aytib uxlatganlar, ovutganlar:

Dunyodagi har bir xalqning o‘z allasi bor. Turkiy xalqlar, xususan o‘zbeklarham qadim-qadimdan bolaning nafaqat tanasi, balki ruhiy olami –ma’naviyati ham sog‘lom bo‘lishiga alohida e’tibor qaratishgan. Ajdodlar bola ko‘nglining sog‘lom va toza bo‘lib shakllanishida beshikdalik paytida eshitgan allasi muhim o‘rin tutishini juda yaxshi bilishgan. O‘zbek onalari tilidan aytilgan allalarda uning orzusi, to‘kis odam haqidagi ideali aks etgan deyish mumkin. O‘zbek allasida ona qalbining harorati, tilaklarining samimiyati va bolasiga chin insoniy sifatlar yor bo‘lishini istashidagi haqqoniyat mavjud.

Alla matnini chaqaloq (bola) tushunmasligi mumkin, lekin alla mohiyatiga singdirilgan ona muhabbatini, undagi shukronalik tuyg‘usini ko‘ngli bilan his qiladi.



Allada onaning mehr-muhabbati bilan birga uning quvonchi, g‘ururi, ayni chog‘da dardi, alami, o‘kinchi, orzu-armonlari ham o‘z ifodasini topishi mumkin. Ma’lumki, har qanday ona oilasini farzandi uchun asraydi ardoqlaydi.

Xulosa o‘rinda aytish mumkinki, alla o‘zbek xalqi madaniyatida mustahkam o‘rin tutgan an’anaviy janr bo‘lishiga qaramay, zamonaviy dunyoda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Bugungi kunda, ayniqsa, turli xil madaniy ta’sirlar bilan ham alla janriga yangi o‘zgartirishlar kiritilmoqda. Turkiy millatlarning milliy bayramlari ham alla ijrosisiz o‘tmaydi. Shuningdek muhtaram Prezidentimiz tashabbusi bilan “Alla aytgan yetar murodga” ko‘rik tanlovining tashkil qilinishi alla aytuvchi barcha havaskorlarning qiziqishini uyg‘otdi hamda, xalqimiz orasida keng yoyilishiga imkon yaratdi. Bu esa o‘zbek, allasining kelgusi avlodga yetkazish uchun zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. “O‘zbek allasi” nomli risoladagi Nigoraxon Sodiqova to‘plagan allalardan namunalari olindi.
2. Alaviya M. O‘zbek xalq marosim qo‘shiqdari. – Toshkent: Fan, 1976. – B. 132
3. M.N. O‘zbek xalq allalari. – Toshkent: FAN, 1974. 132-b
4. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To‘ldirilgan ikkinchi nashri. – Toshkent: O‘zbekiston, 2022. – B. 266.
5. Safarov O. Alla yo Alla. – Toshkent 1999. 140-b.
6. Oxunjon Safarov O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. – Toshkent: Musiq, 2010. 333-bet
7. Oxunjon Safarov, Rahmatulla Barakayev, Bashorat Jamilova “Bolalar adabiyoti” – Buxoro: Durdona, 2019. 48-bet

